Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320489

ta’minlashning ustivor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

tizimiga kiritilishi kerak. Aylanma iqtisodiyot yondoshuvlarini amalga oshirish, suvni qayta ishlash va chiqindilarni minimalizatsiya qilish orqali iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlikni oshirish mumkin;

– Mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish: Mintaqaviy tajribalar va ilg‘or yondoshuvlar o‘rganilishi va O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilishi zarur. Mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish, suvni boshqarishda yangi texnologiyalarni joriy etish va resurslarni samarali boshqarishdagi umumiy strategiyalarni ishlab chiqish muhimdir;

– Suvni boshqarish bo‘yicha ta'lim va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash: Suv resurslarini boshqarishda innovatsion yondoshuvlarni amalga oshirish uchun ta'lim tizimini rivojlantirish va ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash zarur. Yangi texnologiyalarni amaliyotga kiritish, innovatsion fikrlar va ilg‘or texnologiyalarni keng tarqatish muhimdir.

Xulosa. O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarish barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun muhim ahamiyatga ega. Yashil texnologiyalar va aylanma iqtisodiyot tamoyillarini qo‘llash suvni samarali boshqarish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Suv resurslaridan unumli foydalanish, ayniqsa qishloq xo‘jaligida, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini va ekologik barqarorligini ta'minlash uchun zarur. Innovatsion texnologiyalar, masalan, smart sug‘orish tizimlari va suvni qayta ishlash texnologiyalari, suvni tejash va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Suv resurslarini boshqarishda yashil texnologiyalar va aylanma iqtisodiyotning integratsiyasi, shuningdek, mamlakatlar o‘rtasidagi mintaqaviy tajribalar va ulardan olingan saboqlar O‘zbekiston sharoitida muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. Ushbu yondoshuvlar ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O‘zbekiston Respublikasining Suv Kodeksi", 2006, (suv resurslarini boshqarishga oid huquqiy asoslar.)

2. "Suv resurslarini boshqarish to‘g‘risidagi konsepsiya", 2020. (Suv resurslarini samarali boshqarish uchun milliy strategiya.)

3. "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo‘yicha davlat siyosati", 2019.

4. Yuldashev, Sh. (2020). "Suv resurslarini boshqarishning amaliy jihatlari." 89-92-betlar.

5. Gulomov, U. (2021). "Yashil texnologiyalar va barqaror rivojlanish." 101-110-betlar.

11. Kirchhoff, L. et al. (2020). "Circular Economy in Water Resource Management." 39-43-betlar.

12. Suvni qayta ishlash va uning barqaror rivojlanishga qo‘shgan hissasi haqida ma’lumot. https://www.unep.org/resources//water-recycling-global-overview

13. Suv resurslarining xavf-xatarlarini tahlil qilish uchun onlayn vosita. WRI veb-sayti

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING O‘RNI VA STRATEGIK AHAMIYATI

Ko`charov Abulqosim Xolmurza o`g`li
Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar fakulteti 3-bosqich talabasi

Published: 23.12.2024

Cite this article: Ko`charov Abulqosim Xolmurza o`g`li (2024). Iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsiyalarning o‘rni va strategik ahamiyati. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320489

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsiyalarning strategik ahamiyati, ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekistonning innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish borasida olib borayotgan siyosati, muammolari va istiqbollari yoritiladi.

Kalit so`zlar: Iqtisodiy innovatsiyalar, innovatsion iqtisodiyot, texnologik rivojlanish, innovatsion infratuzilma, raqobatbardoshlik, innovatsion tadbirkorlik, ilmiy-tadqiqot ishlari, xalqaro hamkorlik, texnoparklar, patentlash, inson kapitali, O‘zbekistonda innovatsiyalar, tijoratlashtirish, global tajriba, barqaror iqtisodiy rivojlanish.

Kirish

Innovatsiyalar zamonaviy dunyo iqtisodiyotining asosiy omillaridan biriga aylanib bormoqda. Ular iqtisodiy o‘sishni tezlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, innovatsiyalarni iqtisodiy tizimga samarali joriy etish yuqori raqobatbardoshlikni ta’minlaydi. O‘zbekistonda ham innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan.

Innovatsiyalarning iqtisodiy o‘sishdagi nazariy asoslar.

J.A. Shumpeterning iqtisodiy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, innovatsiyalar iqtisodiy tizimni yangilovchi muhim omildir. Ularni quyidagi asosiy yo‘nalishlarga ajratgan:

1. Yangi texnologiyalarning joriy qilinishi.
2. Yangi mahsulotlarning yaratilishi.
3. Ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi usullari.
4. Yangi bozorlarning ochilishi.
5. Resurslardan samarali foydalanish.

Innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy rivojlanishning negizini tashkil etadi, balki mamlakatning ijtimoiy va ekologik barqarorligini ta’minlashda ham muhim o‘rin tutadi

Global tajriba va O‘zbekiston misolida.

Dunyodagi yirik iqtisodiyotlar innovatsiyalarni rivojlantirish orqali muvaffaqiyatga erishgan.

AQSh: Startaplar va ilmiy tadqiqotlarga katta mablag‘ ajratib, texnologik rivojlanishda yetakchilik qilmoqda, Janubiy Koreya: Ilm-fan va texnologiyaga katta sarmoya kiritib, qisqa vaqt ichida global iqtisodiyotning ilg‘or mamlakatlaridan biriga aylangan, Yaponiya: Innovatsion ishlab chiqarish orqali yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish bilan mashhur.

O‘zbekistonda ham innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Masalan, “UzGTL” zavodi yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning yorqin namunasidir. Ushbu loyiha tabiiy resurslardan chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar yaratadi.

O‘zbekistonda innovatsiyalarni rivojlantirishning muammolari.

Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish yo‘lida quyidagi muammolar mavjud: ilmiy-tadqiqotlarni moliyalashtirish yetarli emas, ishlab chiqarish sektori va universitetlar o‘rtasidagi zaif hamkorlik, innovatsiyalarni tijoratlashtirish infratuzilmasining rivojlanmaganligi, ishchi kuchi malakasining pastligi va texnologiyalarni qabul qilishdagi qiyinchiliklarni va boshqalar.

Samarali infratuzilma innovatsion iqtisodiyotning asosini tashkil qiladi. O‘zbekistonda bu yo‘nalishda quyidagilar amalga oshirilmoqda. Texnoparklar – bu innovatsion va texnologik rivojlanishni rag‘batlantirish uchun maxsus tashkil etilgan

hududiy va iqtisodiy muhit bo‘lib, uning asosiy maqsadi ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish va yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishdan iborat. Texnoparklar ilmiy-tadqiqot muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari va ta’lim markazlarini birlashtiradi. Bugungi kunda o`zimizda "Yashnobod" texnoparki innovatsiyalarni tijoratlashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga davlatimizda 22 ta texnopark o`z faoliyatini yuritib kelmoqda.

Startap inkubatori – bu tadbirkorlik g‘oyalarini rivojlantirish va ularni muvaffaqiyatli biznesga aylantirish uchun yaratilgan maxsus tashkilot yoki muhitdir. Startap inkubatorlari yangi loyihalar uchun zarur bo‘lgan resurslar, bilim, texnik ko‘mak va moliyaviy imkoniyatlarni taqdim etadi. Innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun maxsus markazlar tashkil etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi bo‘ylab hozirda 10 dan ortiq startap inkubatori faoliyat ko‘rsatmoqda. Ular mamlakatning raqamli texnologiyalar, innovatsion tadbirkorlik va ilmiy ishlanmalarni rivojlantirish bo‘yicha turli hududlarida tashkil etilgan.

Ilmiy tadqiqot institutlari (O‘zbekistonda yoki umuman dunyoda) ilm-fan sohasida tadqiqotlar olib boradigan muassasalardir. Ular asosan quyidagi sohalarda faoliyat olib boradi: Fan va texnologiya, ijtimoiy fanlar, sog‘liqni saqlash kabi yo`nalishlarni o`z ichiga oladi. Shuningdek xususiy sektor bilan hamkorlikni kuchaytirish choralari ko‘rilmoqda.

Innovatsiyalar va inson kapitali bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Innovatsiyalar – bu yangi texnologiyalar, mahsulotlar, xizmatlar yoki jarayonlarni yaratish va joriy etishdir. Ular jamiyatga iqtisodiy samaradorlikni oshirish, hayot sifatini yaxshilash va raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkonini beradi. Innovatsiyalar texnik bilimlar, tadqiqotlar va ijodkorlik mahsulidir. Inson kapitali – bu shaxslarning bilimlari, ko‘nikmalari, salohiyati va sog‘lig‘i yig‘indisidir. U iqtisodiyotning o‘sishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Inson kapitali o‘qitish, kasbiy malaka oshirish va sog‘liqni saqlash orqali rivojlantiriladi. Innovatsion rivojlanish inson kapitalining sifatiga bog‘liq. O‘zbekiston bu borada quyidagilarga e’tibor qaratmoqda:

Ta’lim tizimini rivojlantirish: Xalqaro standartlarga mos keluvchi dasturlarni joriy qilish. Malaka oshirish: Ishchi kuchining texnologik yangiliklarni tez o‘zlashtirishi uchun o‘quv dasturlarini kengaytirish. Ilmiy kadrlar tayyorlash: Oliy ta’lim va ilmiy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlash.

Xalqaro hamkorlikning roli.

Innovatsion iqtisodiyotda xalqaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega, chunki bu iqtisodiy model ilmiy-tadqiqot, texnologiyalarni rivojlantirish va bilim almashinuvi orqali rivojlanadi. Quyida xalqaro hamkorlikning innovatsion iqtisodiyotdagi asosiy rollarini ko‘rib chiqamiz:

1. Texnologiyalar va bilim almashinuvi. Xalqaro hamkorlik innovatsion iqtisodiyotda texnologiyalar va ilmiy bilimlarni mamlakatlar o‘rtasida tez va samarali tarqalishini ta'minlaydi: yangi texnologiyalarni import qilish orqali mahalliy korxonalar va sohalarni rivojlantirish. Ilmiy-tadqiqot ishlarida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish. Innovatsiyalarni rivojlantirish uchun yetakchi mamlakatlarning tajribasidan foydalanish.

2. Moliyaviy resurslarni jalb qilish. Xalqaro investitsiyalar va grantlar innovatsion iqtisodiyot uchun muhim moliyaviy manba hisoblanadi: xalqaro tashkilotlar (masalan, Jahon banki, Yevropa investitsiya banki) va xususiy investorlar innovatsion loyihalarga sarmoya kiritadi. Venchur kapital jalb qilish orqali startaplar va innovatsion g‘oyalarning rivojlanishiga ko‘maklashish.O‘zbekistonning innovatsion rivojlanish strategiyasi xalqaro hamkorlikni kuchaytirishni nazarda tutadi.

Innovatsion iqtisodiyotni baholash mezonlari.

Mamlakatning innovatsion salohiyatini baholash uchun quyidagi indikatorlar muhim:

1. Ilmiy tadqiqotga ajratilgan mablag‘ ulushi (YAIMga nisbatan).
2. Innovatsion mahsulotlarning ishlab chiqarishdagi ulushi.
3. Patentlangan ishlanmalar soni.
4. Innovatsiyalarning eksportdagi ulushi.

Xulosa va taklifla

Innovatsiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo‘lib, ular orqali O‘zbekiston barqaror iqtisodiyotni shakllantirish imkoniyatiga ega. Maqolada tahlil qilingan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlar taklif qilinadi. Innovatsion tadqiqotlarni moliyalashtirish va xususiy sektorni bu jarayonga jalb qilish.

Innovatsiyalar uchun qulay huquqiy va moliyaviy muhit yaratish.

Xalqaro tajribani mahalliy sharoitlarga moslashtirish.

Ta’lim tizimini rivojlantirish orqali inson kapitalini mustahkamlash.

Bu chora-tadbirlar O‘zbekiston iqtisodiyotini nafaqat rivojlantiradi, balki global raqobatda o‘z o‘rnini mustahkamlashiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Matkarimovich .K. A. SANOAT KORXONALARI IQTISODIY BARQAROR FAOLIYATINI TA’MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2024. – T. 4. – №. 01. – C. 57-66.

2. Botir o‘g‘li M. B. TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH //INTERNATIONAL JOURNAL OF INTEGRATED SCIENCES. – 2024. – T. 1. – №. 1.

3. Mengnorovna X. M. SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLRI //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2024. – T. 3. – №. 32. – C. 164-170.

ПОВЫШЕНИЕ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Набиева Нилуфар Муратовна
Доцент кафедры «Экономика»
n.nabieva@ferpi.uz

Предпринимательство является одним из ключевых двигателей экономического развития и повышения благосостояния населения. Оно способствует созданию рабочих мест, развитию инноваций, увеличению доходов и улучшению качества жизни. В условиях глобальных экономических изменений предпринимательская активность становится мощным инструментом для решения социальных и экономических проблем.

Немаловажная роль отводится предпринимательству в улучшении благосостояния населения.

Создание рабочих мест Малые и средние предприятия (МСП) играют решающую роль в создании рабочих мест. По данным Международной организации труда, около 70% рабочих мест во всем мире приходится на МСП. Развитие предпринимательства позволяет сократить уровень безработицы, особенно среди молодежи, и обеспечивает стабильный доход для миллионов семей.